

THE ROLE OF MUSEUM EXCURSIONS IN PROMOTING CULTURAL
HERITAGE

Amanxodjayeva Gulnora Nigmatdjanovna

Senior Lecturer, Department of Museology
Kamoliddin Behzod National Institute
of Fine Arts and Design

Dilnoza Bo'riyeva, a student in the
Museum Management and Cultural Tourism program
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20024199>

Abstract: The article analyzes museum excursions as one of the most effective mechanisms for promoting cultural heritage. Excursions strengthen intergenerational continuity through lively and scientifically grounded narratives about historical and cultural objects. Theoretical and practical aspects are examined based on Uzbekistan's experience (Cultural Heritage Agency and state museums) and international standards (ICOM, UNESCO). Special attention is paid to the advantages of museum staff performing guiding functions and a comparative analysis with **tour guide**. The purpose of the study is to reveal the cultural-educational and promotional significance of museum excursions and to propose ways for their further development.

Keywords: museum excursion, cultural heritage promotion, role of museum staff as guides, scientific-methodological staff, **tour guide**, State Museum of the History of Timurids, Louvre Museum

Аннотация: В статье музейные экскурсии анализируются как один из наиболее эффективных механизмов продвижения культурного наследия. Экскурсии способствуют укреплению преемственности поколений через живое и научно обоснованное повествование об историко-культурных объектах. На основе опыта Узбекистана (Агентство по культурному наследию и государственные музеи), а также международных стандартов (ICOM, ЮНЕСКО) освещаются теоретические и практические аспекты. Особое внимание уделяется преимуществам гидовской деятельности сотрудников музея и сравнительному анализу с **экскурсовод**. Цель работы — раскрыть культурно-просветительское и пропагандистское значение музейных экскурсий и предложить пути их дальнейшего развития.

Ключевые слова: музейная экскурсия, продвижение культурного наследия, роль сотрудников музея как гидов, научно-методический сотрудник, **экскурсовод**, Государственный музей истории Тимуридов, Луврский музей.

Annotatsiya: Maqolada muzey ekskursiyalari madaniy merosni targ'ib qilishning eng samarali mexanizmlaridan biri sifatida tahlil etiladi. Ekskursiyalar tarixiy-madaniy obyektlarni jonli va ilmiy asoslangan ma'lumotlar orqali avlodlar o'rtasidagi uzviy bog'lanishni mustahkamlaydi. O'zbekiston tajribasi (Madaniy meros agentligi va davlat muzeylari) hamda xalqaro standartlar (ICOM, YUNESKO) asosida nazariy va amaliy jihatlar yoritiladi. Alohida e'tibor muzey xodimlarining gidlik faoliyatining ustunliklariga va **gid ekskursavod** bilan solishtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: muzey ekskursiyasi, madaniy meros targ'ibi, muzey xodimlarining gidlik roli, ilmiy-metodik xodim, **gid ekskursavod**, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Luvr muzeyi.



Madaniy meros xalqning ma'naviy boyligi, o'tmishining ko'zgusi va kelajak poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, madaniy merosni saqlash, o'rganish va targ'ib qilish mustaqil davlatning strategik vazifalaridan biridir¹. Muzey ekskursiyalari bu jarayonda markaziy o'rin tutadi. Ekskursiya nafaqat obyektlarni ko'rsatish, balki ularning tarixiy, ilmiy ahamiyatini va madaniy qiymatini chuqur tahlil asosida yetkazish san'atidir. Zamonaviy muzeylar oddiy saqlash muassasalaridan chiqib, madaniy merosni faol targ'ib qiluvchi va turizm bilan integratsiyalashgan ilmiy-ma'rifiy markazlarga aylanmoqda.

“Ekskursiya” termini lotincha *excursio* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu (tashqariga yugurmoq, chiqib ketmoq) degan ma'noni anglatadi. Dastlab harbiy va ritorik ma'nolarda qo'llanilgan bu atama keyinchalik madaniy-ma'rifiy sayohat va obyektlarni jamoaviy ko'rish jarayonini bildiruvchi tushunchaga aylandi². Muzey ekskursiyasi – eksponatlar, tarixiy obidalar va madaniy meros obyektlarini ko'rsatish, ular haqida ilmiy asoslangan ma'lumot berish hamda tashrif buyuruvchilarda chuqur taassurot uyg'otish jarayonidir. U madaniy turizmning asosiy shakllaridan biri bo'lib, bilim berish, tarbiya va estetik tarbiya funksiyalarini bajaradi. Muzey ekskursiyalari madaniy merosni targ'ib qilishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Ular ma'rifiy ta'sir ko'rsatadi, yosh avlodda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi, iqtisodiy foyda keltiradi va xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantiradi. O'zbekistonda muzeylar va muzey-qo'riqxonalar madaniy merosni saqlash, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishning asosiy obyektlardan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda respublikada jami 138–140 taga yaqin davlat muzeyi (filiallarni qo'shgan holda) mavjud bo'lib, ularda asosiy fond eksponatlari soni 2,7 million donadan ortiqni tashkil etadi³. Madaniy meros agentligi tasarrufidagi 114 ta davlat muzeyi va muzey-qo'riqxonalar (37 ta asosiy muzey, 71 ta filial hamda 6 ta muzey-qo'riqxonalar) esa milliy merosni targ'ib qilish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va keng ommaga yetkazishda faol ishtirok etmoqda⁴. Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi va “Ichan Qal'a” muzey-qo'riqxonasi kabi muassasalarda ekskursiyalar asosan muzeyning o'z ilmiy-metodik xodimlari tomonidan tashkil etiladi. Ekskursiyalar joylashuviga ko'ra: stasionar (muzey ichida) va marshrutli, mavzusiga ko'ra tarixiy, arxeologik, san'atshunoslik, usuliga ko'ra an'anaviy, interaktiv va virtual turlarga bo'linadi.

Zamonaviy muzey amaliyotida tashrif buyuruvchilarning bir qismi o'zlari bilan tashqi gidlar (ekskursivodlar) ni jalb qilishni afzal ko'radi. Bunday gidlar umumiy tarixiy va madaniy faktlarni yetarli darajada taqdim etishi mumkin bo'lsa-da, ularning taqdimoti ko'p hollarda keng ommaga ma'lum bo'lgan umumiy ma'lumotlar va standart yondashuvlarga asoslanadi. Tashqi gidlar muzeyning noyob kolleksiyasi va eksponatlarining chuqur ilmiy jihatlarini to'liq qamrab olish imkoniyatiga ega emas, chunki ular muzey fondlarini doimiy ravishda o'rganmaydi va ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etmaydi. Natijada, tashrif buyuruvchilar eksponatlarning haqiqiy ilmiy-tarixiy kontekstini to'liq anglash o'rniga faqat umumiy tasavvurga ega bo'lib qolishi mumkin. Shu sababli, muzeyning o'z ilmiy-metodik xodimlari tomonidan ekskursiyalarni bevosita olib borish madaniy merosni samarali targ'ib qilishning eng maqsadga muvofiq usuli hisoblanadi. Ilmiy xodimlar eksponatlarni har kuni kuzatib boradi, ular bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib boradi va har bir detalning ilmiy-tarixiy, madaniy va kontekstual jihatlarini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-sonli qarori “O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” // lex.uz.

² Online Etymology Dictionary. Excursion // <https://www.etymonline.com/word/excursion>

³ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra (eksponatlar soni bo'yicha: 2,7 mln dona).

⁴ O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi axborot xizmati ma'lumotlari, 2026-yil yanvar (gazeta.uz, 2026-yil 14-yanvar)



chuqur biladi. Bu yondashuv tashrif buyuruvchilarga aniq, ilmiy asoslangan va to'liq ma'lumot yetkazish imkonini beradi hamda madaniy meros haqida yetarlicha ma'lumotlar beradi.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan Toshkent shahrida ochilgan bo'lib, fondida Temur va Temuriylar sulolasi davriga oid 5000 dan ortiq noyob eksponat saqlanadi. Muzey kolleksiyasining asosiy qismini qo'lyozma asarlar, tangalar, qurol-yarog', sopol va mis buyumlar, etnografik ob'ektlar hamda "Usmon mushafi" (Samarqand Kufiy Qur'oni) nusxasi kabi noyob yodgorliklar tashkil etadi⁵. Muzey direktori, tarix fanlari nomzodi Xurshid Fayziyevning ta'kidlashicha, ilmiy xodimlar o'ndan ziyod mavzuda tadqiqotlar olib borganlar va so'nggi yillarda muzeyda o'tkazilgan ekskursiyalar soni 10 mingdan oshgan⁶. Ekskursiyalar asosan muzeyning o'z ilmiy-metodik xodimlari tomonidan olib boriladi. Ular eksponatlarning nafaqat umumiy tarixini, balki topilish sharoitlari, ilmiy ahamiyati va noyob xususiyatlarini chuqur yoritadilar. Natijada, tashrif buyuruvchilar muzeydan chuqur bilim va haqiqiy taassurot bilan chiqadilar.

Luvr muzeyida ekskursiyalarni o'tkazish huquqi qat'iy tartibga solingan. Fransiya qonunchiligiga (Turizm kodeksining R.221-11 va keyingi moddalar) ko'ra, muzey ichida ommaviy nutq so'zlash (droit de parole) huquqi faqat maxsus professional kartochkaga (carte professionnelle de guide-conférencier) ega bo'lgan milliy muzey gidlariga, kuratorlarga, École du Louvre o'qituvchilariga va tegishli ruxsatnomalarga ega shaxslarga beriladi⁷. Gid ekuskursavodlar esa Fransiya Madaniyat vazirligi yoki Turizm vazirligi tomonidan beriladigan professional kartochka va ruxsatnomani olishlari shart bo'lib, ularning faoliyati muzey tomonidan doimiy nazorat qilinadi. Muzeyning rasmiy gidlari (official museum guides) va kuratorlari kolleksiyani doimiy ravishda o'rganadilar. Ular Mona Liza (La Gioconda), Venera haykali (Vénus de Milo) va boshqa mashhur asarlar haqida nafaqat umumiy faktlarni, balki ularning yaratilish tarixi, restavratsiya jarayoni, ilmiy tadqiqot natijalari va kontekstual ahamiyatini chuqur tahlil qilib beradilar. Bu yondashuv eksponatlarning ilmiy aniqligini ta'minlaydi va madaniy merosni keng targ'ib qilishda katta yordam beradi⁸.

Ikkala muzeyda ham gid ekskursavodlarning ishtiroki mumkin bo'lsa-da, ularning taqdimoti ko'proq umumiy va keng tarqalgan ma'lumotlarga asoslanadi. Luvr muzeyida ekuskursiyani faqat maxsus professional kartochkaga (carte professionnelle de guide-conférencier) ega bo'lgan muzeyning o'z ilmiy-metodik xodimlari, kuratorlari olib borgan sababli eksponatlarning noyob ilmiy jihatlarni to'liq ochib berishadi. Gid ekskursavodlar esa Fransiya Madaniyat vazirligi yoki Turizm vazirligi tomonidan beriladigan professional kartochka va ruxsatnomani olishlari shart bo'lib, ularning faoliyati muzey tomonidan doimiy nazorat qilinadi. Natijada, muzey xodimlarining gidlik roli madaniy merosni samarali targ'ib qilishning asosiy sharti bo'lib, tashrif buyuruvchilarga chuqur bilim va haqiqiy taassurot berishni ta'minlaydi. Bu yondashuv ICOM va YUNESKO standartlariga ham mos keladi, chunki muzey xodimlari eksponatlarning haqiqiy qiymatini ilmiy asosda yetkazish orqali madaniy merosni saqlash va targ'ib qilishning eng samarali mexanizmini yaratadi. Luvr muzeyi tajribasiga o'xshash yondashuvni Temuriylar tarixi davlat muzeyi faoliyatida qo'llash madaniy merosni yanada samarali targ'ib qilishga katta hissa qo'shadi. Bunday tizimning asosiy g'oyasi — ekskursiyalarni faqat maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, ilmiy bilimga ega muzey xodimlari olib borishini yo'lga qo'yishdir. Agar Temuriylar tarixi muzeyida ham ilmiy xodimlar, tarixchilar va kuratorlar uchun ekskursiya jarayoni haqida

⁵ Temuriylar tarixi davlat muzeyi (uz.wikipedia.org)

⁶ Fayziyev X.T. bilan suhbat (Xalqaro muzeylar kuni munosabati bilan), YouTube, 2022–2024-yillar

⁷ Musée du Louvre. Règlement de visite (2026-yil versiyasi). Article 17 va 18; shuningdek, Code du tourisme, Article R.221-11

⁸ Louvre rasmiy sayti (louvre.fr) va Visitor Regulations



maxsus darslar tashkil qilinsa, tashrif buyuruvchilarga Amir Temur va temuriylar davri haqidagi ma'lumotlar yanada chuqur, ishonchli va ilmiy asosda yetkaziladi. Shuningdek, professional gidlar uchun maxsus sertifikatlash tizimini joriy etish, ularning faoliyatini nazorat qilish va malakasini doimiy oshirib borish ham muhimdir. Bu orqali ekskursiyalar sifati yaxshilanadi, tashrif buyuruvchilar soni ortadi va ular aniq ma'lumotlarga ega bo'lishadi.

Xulosa o'rnida aytganda, muzey ekskursiyalari madaniy merosni targ'ib qilishning noyob va samarali vositasidir. Muzey xodimlarining o'zi gidlik qilishi (Temuriylar tarixi davlat muzeyi va Luvr tajribasi misolida ko'rinib turganidek) eksponatlar haqidagi chuqur ilmiy bilimni ta'minlaydi va madaniy merosni keng targ'ib qiladi. Innovatsion yondashuvlar va xalqaro hamkorlik orqali bu yo'nalishni rivojlantirish O'zbekistonning madaniy merosini jahon miqyosida yanada yorqin namoyon etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-sonli qarori "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" // lex.uz.
2. Online Etymology Dictionary. Excursion // <https://www.etymonline.com/word/excursion>
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra (eksponatlar soni bo'yicha: 2,7 mln dona).
4. O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi axborot xizmati ma'lumotlari, 2026-yil yanvar (gazeta.uz, 2026-yil 14-yanvar)
5. Temuriylar tarixi davlat muzeyi (uz.wikipedia.org)
6. Fayziyev X.T. bilan suhbat (Xalqaro muzeylar kuni munosabati bilan), YouTube, 2022–2024-yillar
7. Musée du Louvre. Règlement de visite (2026-yil versiyasi). Article 17 va 18; shuningdek, Code du tourisme, Article R.221-11
8. Louvre rasmiy sayti (louvre.fr) va Visitor Regulations

